

## O'RTA OSIYO O'SIMLIK VA HAYVONOT DUNYOSI

*Matsaidova Sayyora Xudaybeganovna*

*Qazaqova Begoyim Ergash qizi*

**Annotasiya:** O'rta Osiyo o'simlik va hayvonlarini inson hayotidagi o'rni, ularni saqlab qolish ko'paytirish ayniqsa tabiatda nayob bo'lgan turlarni yo'qolib ketishi oldini olish uchun qaratilgan harakatlarni ko'rish mumkin. Ularni saqlab qo'lishni bir necha yo'llari ko'rsatildi.

**Kalit so'zlar:** Qizil kitob, Biosfera rezevati, Qo'riqxona, Tajriba stansiyalari, Buyurtmaxonalar, Akklimatizasiya, Reakklimatizasiya, Innovatsiya.

**Abstract:** It is possible to see the role of Central Asian plants and animals in human life, their preservation and increase, especially the actions aimed at preventing the disappearance of species that are rare in nature. There are several ways to save them.

**Key words:** Red Book, Biosphere Reserve, Reserve, Experimental Stations, Order Offices, Acclimatization, Reacclimatization, Innovation.

**Аннотация:** Можно увидеть роль среднеазиатских растений и животных в жизни человека, их сохранение и приумножение, особенно действия, направленные на предотвращение исчезновения видов, редких в природе. Есть несколько способов их сохранить.

**Ключевые слова:** Красная книга, биосферный заповедник, резерват, опытные станции, заказники, акклиматизация, реакклиматизация, инновации.

**KIRISH.** O'simliklar Yerdagi hayot uchun zarur bo'lib, kislorod, oziq-ovqat va boshpana kabi muhim resurslarni ta'minlaydi. Afsuski, ko'plab o'simlik turlari o'rmonlarning kesilishi, ortiqcha o'rim-yig'im va invaziv turlarning kiritilishi kabi inson faoliyati tufayli yo'q bo'lib ketish arafasida. Bu asosiy muammo, chunki bu turlarning yo'qolishi atrof-muhit va insoniyat jamiyati uchun juda katta oqibatlarga olib kelishi mumkin. Hayvonlar biologik resurslarning ajralmas bir qismi bo'lib, tabiatda moddalar va energiya almashinuvida muhim rol o'ynaydi. Hayvonlar o'simliklar bilan uzviy

aloqada bo'lib, geografik qobiqda kimyoviy elementlarning migrasiyada qatnashadi. Hayvonlar o'simliklar tomonidan quyosh nuri ta'sirida hosil qilgan organik moddalar va bir-birlari bilan oziqlanib, biologik hamda tabiatda moddalarning almashinuvida ishtirok etadi.

**ASOSIY QISM.** O'rta Osiyoning o'simlik xaritalariga nazar tashlasangiz, uning yerusti tuzilishida bir nechta o'simlik mintaqalari mavjudligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Bularga: cho'l, chalacho'l, dasht, adir, yaylov kabi bir qancha mintaqalar mavjud. Bu o'simliklar ichida ko'plab kasalliklarga da'vo bo'ladigan turlari ham mavjud. Shu kabi o'simliklarni asrash maqsadida ko'plab ishlar olib borilmoqda.

Masalan O'zbekiston Qizil kitobi bu kitob 1979-yilda tashkil etilgan va 1984-yilda birinchi nashrdan chiqgan. O'sha payti kitob noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi o'simliklarning 163 turi va umurtqali hayvonlarning 63 turini o'z ichiga olgan. Bu kitob hozirgacha 4 nashrda chiqgan. So'nngi chiqgan nashrida 184 turdagи hayvonlar kiritilgan. Qizil kitob tashkil qilganidan keyin ko'plab o'simlik va hayvonlarni yo'qalib ketish xavfi kamaygan. O'rta Osiyodagi ko'plab o'simlik va hayvonlari XTMQI(Xalqaro Tabiatni Muhofaza Qilish Ittifoqi) Qizil ro'yhatiga kiritilgan. O'zbekiston musaqillikka erishgach, atrof-muhitni, hayvonot va o'simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratildi. 1992 yil 9 dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, 2004 yil 3 dekabrda "Muhofaza etiladigan tabiy hududlar to'g'risida"gi qonunlar, 2016 yil 21 sentyabrda "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", 2018 yil 16 aprelda esa "O'rmon haqida"gi qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi. Bu qonunlar barcha o'simlik turlarini saqlab qolish, ularni asrab avaylash va muhofaza qilishda muhim hujjat hisoblanadi.

Qizil kitobga kiritilgan o'simlik turlariga Tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan kamyoblik darajasiga ko'ra 4 ta maqom (status) beriladi.

1. Yo'qolgan yoki yo'qolib ketganligi ehtimoldan yiroq emas. Bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan, lekin yig'ib olish qiyin bo'lgan ayrim joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlab qolish ehtimoli mavjud bo'lgan turlar.

2. Yo‘qolib ketish arafasida turgan. Yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan, saqlab qolinishi uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar.

3. Kamyob. Ma’lum kichik maydonlardagina o‘ziga xos sharoitlarda saqlab qolningan, ammo tez yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.

4. Son jihatdan kamayib borayotgan. Soni va tarqalgan maydonlari ma’lum vaqt ichida tabbiy sabablarga ko‘ra yoki inson omili ta’siri ostida kamayib ketayotgan turlar. Ayni vaqtda, bunday o‘simliklarni har tomonlama nazoratga olish talab etiladi.

Bundan tashqari o‘simlik va hayvonlarni saqlash maqsadida biosfera rezervatlari ham tashkil qilinadi. Bunday biosfera rezervatlaridan O‘zbekistonda ham mavjud.

Bunga misol Quyi Amudaryo biosfera rezervati. Bu rezervat uch zonadan tashkil topgan:

- qo‘riqxona yoki yadro zonasasi — bu qat’iy qo‘riqlash tartibli zona;
- iqtisodiy rivojlanish yoki mahalliy aholini dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan o‘tish zonasasi;
- va qo‘riqxona hamda o‘tish zonalarini chegaralab turadigan bufer zonasasi.

Bu ishlar natijasida yo‘qolib ketish xavfi mavjud o‘simlik va hayvonlar saqlab qolnadi. Shu kabi o‘simlik va hayvonlarni turini ko‘paytirish uchun buyurtmaxonalar tashkil qilinadi. Bunday buyurtmaxonalar respublikamizda Buxoro, Jizzax, Qashqdaryo, Samarqand, Navoiy kabi hududlarda mavjud.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. П. Саратов, М. Маматкулов, А. Рафиков Ўрта Осиё табиий географияси, "Ўқитувчи" нашриёти, Ташкент, 2002
2. [www.google.uz](http://www.google.uz)